



ACCOUNTING OF COMMODITY AND MATERIAL RESOURCES AND METHODS OF DETERMINING THEIR COST

O.Kuljanov¹, M.Xidirov²

¹ Associate Professor of Tashkent Financial Institute

² Master of Tashkent Financial Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4764106>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2021

Accepted: 5th May 2021

Online: 10th May 2021

KEY WORDS

inventories, production, work, services, work in progress, production costs, cost determination, determination of base cost, simple method, conventional method, order method, inventory and its structure.

ABSTRACT

The scientific article presents the reforms aimed at improving the efficiency of inventories in the activities of business entities, a description of inventories, stock composition, scientifically based conclusions, suggestions and practical recommendations for determining the cost of inventories.

TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA ULARNING TANNARXINI ANIQLASH USULLARI

O.Kuljanov¹, M.Xidirov²

¹ Tashkent moliya instituti dotsenti

² Tashkent moliya instituti magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021

Ma'qullandi: 5-May 2021

Chop etildi: 10-May 2021

KALIT SO'ZLAR

tovar-moddiy zahira, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, tugallanmagan ishlab chiqarish, mahsulotlar tannarxi, tannarx aniqlash, tannarxni aniqlashning asosiy usullari, oddiy usul, me'yoriy usul, buyurtmali usul, bosqichli usul, inventar va xo'jalik jihozlari tarkibi.

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida tovar-moddiy zahiralarning hisobining samaradorligini oshirish bo'yicha islohotlar keltirilgan, tovar-moddiy zahiralarga ta'riflash berildi, tovar-moddiy zahiralarning tarkibi aniqlashtirilgan, tovar-moddiy zahiralarning (mahsulotlar) tannarxini aniqlash usullari bo'yicha xulosalar, taklif va amaliy tavsiyalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan



Kirish. Dunyo miqyosida tovar-moddiy zahiralarga bo'lgan ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda jahon sanoat ishlab chiqarishi tovar-moddiy zahiralarning hisobini takomillashtirish, tannarxni pasayishi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda iqtisodiy jihatdan ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Xo'jalik sub'ektlari o'z ishlab chiqarish faoliyatlarini amalga oshirishi uchun ma'lum miqdorida tovar-moddiy zahiralarga ega bo'lishi kerak. Tovar-moddiy zahiralarning xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi.

Xalqaro amaliyotda tovar-moddiy zahiralarni guruhlanishi va hisobini takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish, buxgalteriya hisobining dastlabki va yig'ma hujjatlarini aylanish tartibi va hisob registrlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlar sanoat korxonalarida xususiyatlaridan kelib chiqib tovar-moddiy zahiralardan samarali foydalanish, buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etilishi, raqobatbardoshligini ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotimizga tatbiq etish asosiy zaruriyat ekanligini belgilab beradi. Jahon sanoatining rivojlanishi o'zaro tovar aylanmasini yaxshilash, tovar-moddiy zahiralarning hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni ilmiy tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan ham sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ilmiy yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, tovar-moddiy zahiralarning hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida ilmiy jihatdan takomillashtirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarida talab etilayotgan tovar-moddiy zahiralarning mustahkam bazasini yaratish va uni takomillashtirish, zahiralarni aniqlash va sanoat korxonalarida tovar-moddiy zahiralarning hisobini takomillashtirish ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Bu o'z navbatida sanoat korxonalarida tovar-moddiy zahiralarning hisobini tarmoqlardagi islohotlar talablariga mos holda takomillashtirib borishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

“Tovar-moddiy zahiralarning - normal faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar” [1] deb ta'rif berilgan.

Bizning fikrimizcha, ushbu tovar-moddiy zahiralarga berilgan ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Tovar-moddiy zahiralarning xo'jalik sub'ektlarda quyidagilar tarkibida bo'lishi mumkin:

- xom ashyo va materiallar, xarid qilingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik jihozlari hamda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan boshqa materiallar zahiralari;



1-rasm. Tovar-moddiy zahiralari tarkibi[1].

- boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan katta yoshdagi chorva mollari, sotish uchun chetdan qabul qilingan chorva mollari;

- detallar, uzellar, buyumlarga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan

ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan xo'jalik sub'ektlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va xo'jalik sub'ekt tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlarni (xizmatlarni) bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

- xo'jalik sub'ektda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish



tsiklining pirovard natijasi – realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan va shartnomada yoki qonun hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

• boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va xo'jalik sub'ektning odatiy faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) ham keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

Inventar va xo'jalik jihozlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:

xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

xizmat muddatidan qat'iy nazar xarid qilish paytida qiymati bir birlik (komplekt) uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan **bazaviy hisoblash miqdorining** ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Xo'jalik sub'ekt rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik jihozlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir [2].

Tovar-moddiy zahiralari asosiy vositalardan farqli ravishda, bir ishlab chiqarish jarayonida katnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadi. Materiallar bilan birgalikda,


xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar sub'ekt aylanma aktivlarini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun zarur bo'ladigan aylanma mablag'larining umumiy miqdori tegishli vazirliklar timonidan belgilanadi. Materiallarning har bir turi bo'yicha me'yorlarni sub'ektning o'zi mustaqil belgilaydi. Har bir korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz davom etib turishida belgilangan me'yorlarga rioya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zahiralardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, ularning oqilona sarflanishiga rioya qilish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning salmog'ini minimallashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Eng avvalo, materiallarni to'g'ri, tejamli sarflash sub'ekt faoliyatini rivojlantirishda va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini gullab yashnashida, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar-moddiy zahiralari (mahsulotlar) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, ishlab chiqarish turi, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarishning mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy zahiralari nomenklaturasiga bog'liqdir.

Tahlil va natijalar

Mahsulotlar tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo'lib: *oddiy, me'yoriy, buyurtmali, bosqichli usullar* hisoblanadi [3].



2-rasm. Mahsulotlar tannarxini aniqlashning asosiy usullari[3].

Yuqoridagi mahsulotlar tannarxini aniqlash usullarini alohida-alohida o'rganamiz.

Tannarxni aniqlashning *oddiy usuli* bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan hamda yarim tayyor mahsulotlari va tugallanmagan ishlab chiqarishi bo'lmagan xo'jalik sub'ektlarida qo'llaniladi. Ushbu usulni qo'llaganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladi. Mahsulot birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Mahsulot tannarxni aniqlashning *me'yoriy usuli* xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yorlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yorlar vaqti-vaqti bilan buxgalterlar tomonidan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning *buyurtmali usuli* esa yakka tartibdagi va mayda seriyali mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan xo'jalik sub'ektlarida qo'llaniladi, bunga ko'ra ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga (bir xildagi mahsulotlar turiga) doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadi

va hisobi yuritiladi. Bu buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot, bir xildagi mahsulotning mayda turlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Mahsulot tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil etadi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot turidan iborat bo'lsa, mahsulotlar birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruksiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalar tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning *bosqichli*



usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan xo'jalik sub'ektlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Bosqichli usul xo'jalik sub'ektning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ikki variantda amalga oshirilishi mumkin ya'ni yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti tannarxi va ushbu bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi - barcha tayyor mahsulot tannarxi hisoblanadi.

Yarim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot tannarxi hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

Ishlab chiqarish tarmog'ining xususiyatlaridan kelib chiqib, tovar-moddiy zahiralari, shu jumladan qo'shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlashning qo'llanadigan usullari xo'jalik sub'ektning hisob siyosatida aks ettirilishi kerak.

Tovar-moddiy zahiralari baholanadi, bular quyidagilardir:

AQSHda LIFO va FIFOdan foydalanish o'rtasidagi tanlovni tushuntirishga yordam beradigan xususiyatlar, Kanada firmalarini AQShning LIFO foydalanuvchilari va FIFO foydalanuvchilari bilan taqqoslash uchun ishlatiladi. Agar Kanadadagi firmalar

AQShning FIFO foydalanuvchilariga xarakteristik jihatdan o'xshash bo'lsa, unda firma xarakteristikalari gipotezasi qo'llab-quvvatlanadi va LIFO Kanadada kamdan-kam ishlatiladi, chunki ba'zi firmalar LIFOga o'xshash asosiy xususiyatlarida foydalaniladi[4].

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zahiralari hisobini takomillashtirish masalalari bo'yicha quyidagi umumiy xulosalar qilindi:

1. Sanoatning ishlab chiqarish jarayonida asosiy xom-ashyoning ishlab chiqarishga sarflanishida omborsiz tizimga asoslanilsa, buxgalteriya hisobini tashkil etishda analitik hisoblarga bo'ladigan xarajatlarni kamaytirish imkoniyati kengayadi.

2. Ishlab chiqarish jarayonidan olinadigan mahsulot hajmiga belgilangan me'yorlardagi materiallar, xom-ashyolar sarfiga bog'liqdir. Zarur bo'lgan hajm, energiya va issiqlik darajasining etishmasligi mahsulot tannarxini kamaytirish emas, balki mahsulotni umuman olinmasligiga ham olib kelishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan ortiqcha xarajatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

3. Mamlakatimiz iqtisodiyotining inflyatsiya darajasini o'rgangan holda, tovar-moddiy zahiralarni xarid qilish paytida qiymati bir birlik (komplekt) uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha bo'lgan miqdorni qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi hamda me'yoriy huquqiy hujjatlarda o'z aksini topishi mamlakatimiz kimyo sanoatida tovar-moddiy zahiralari hisobini takomillashtirishga va ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini pasaytirishga hizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. Tashkent: "NORMA", 2011. 360-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) "Tovar-moddiy zahiralar" (yangi tahriri). - T., 2019 yil.
3. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.
4. Marie Archambault, Jeffrey Archambault A test of the firm characteristics hypothesis for LIFO choice of Canadian firms. [https:// www.sciencedirect.com /science/article/abs/pii/S1061951899000087](https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1061951899000087)